

Bo'lim boshlig'i:

Маркинг Людмила Иосифовна

Qabul vaqti: Seshanba-Juma (15:00-17:00)

Telefon: (0 371) 238-64-28

E-mail: asqar@tuit.uz

Bo'lim faoliyati haqida

Moliya-iqtisod bo'limi universitetning tuzilmaviy bo'linmasi hisoblanadi. Bo'lim vazifalariga istiqbolli va joriy rejalarni ishlab chiqish, universitet bo'linmalariga sarf-xarajatlarini prognozlash, turli manbalardan universitetni moliyalashtirish ehtiyojlarini aniqlash (davlat byudjeti, byudjetdan tashqari faoliyat, ilmiy-tadqiqot ishlardan daromadlar va b.). Bo'lim faoliyatning barcha turlari bo'yicha daromadlar va xarajatlar ro'yxatini tuzish, OTM moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish, istiqbolli loyihalar va talabalarni qabul qilish yillik rejalarni tuzish bilan shug'ullanadi. Stipendiyalarni tayinlash tartibini nazorat qiladi, stipendiya ta'minoti va ichki tartib qoidalari, OTM Nizomini ishlab chiqishda qatnashadi.

Bo'limning asosiy funksiyalari:

- Shtat jadvalini tuzish va nazorat qilish.
- Daromadlar va xarajatlar prognozini ishlab chiqish, xarajatlari va daromadlar smetalarini tuzish va nazorat qilish.
- Bo'linmalarni moliyalashtirish limitlarini hisoblab chiqish.
- Universitet faoliyatining barcha turlarini kompleks tarzda iqtisodiy tahlilini o'tkazish.
- Universitet faoliyati ko'rsatkichlari bo'yicha statistik hisobini olib borish, belgilangan muddatda hisobotlar tayyorlash hamda statistik materiallar tizimlashtirish.
- O'z vakolat doirasida yo'riqnomalar va metodik materiallarini tayyorlaydi.
- Buxgalteriya bilan birgalikda ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati natijalarini hisoblash va tahlil qilish bo'yicha ishlarin metodik rahbarlik va tashkil qilishni amalga oshirish, hisob-kitob hujjatlarni ishlab chiqish.
- Yangi o'quv yiliga professor-o'qituvchilar, o'quv-yordamchi xodimlar, xo'jalik va ma'muriy-boshqaruv personalining mehnat haqi bo'yicha me'yoriy bazani tuzish.
- Mehyoriy bazani o'zgarishini hosibga olgan holda shtat jadvalini to'g'rilash.
- Moliyalashtirish manbalarini hisobga olish.
- Byudjet va byudjetdan tashqari moliyalashtirish bo'yicha xarajatlar va daromatlar smetalarini tuzish.
- Universitetning byudjet moliyalashtirish bo'yicha limitlarni Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi va Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangandan so'ng xarajatlar va daromadlar smetasini to'g'rilash.
- Ishchilar toifalari va bo'linmalari bo'yicha byudjet va byudjetdan tashqari moliyalashtirish bo'yicha mehnat haqi mablag'lari ajratilishini nazorat qilish.
- Choraklar bo'yicha mehnat haqini to'lash fondi va xarajatlar smetalarini tahlil qilish.
- Universitetga xodimlar toifalari, mehnat haqini to'lash, xarajatlar va daromadlar smetalari hamda statistik ma'lumotlar bo'yicha talab qilingan ma'lumotlarni taqdim qilish.